



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-fevral***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel. 71-202-80-44 (45)***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 91 747 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 311 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 91 436 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 48 131,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 109,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 7 799,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 40 332,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 839,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	48 131,6	109,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 676,6	106,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 251,6	110,0
Buxoro	2 674,5	109,2
Jizzax	1 613,8	108,8
Qashqadaryo	3 371,3	109,0
Navoiy	1 717,6	107,5
Namangan	2 809,3	110,2
Samarqand	4 402,8	108,1
Surxondaryo	3 149,6	109,3
Sirdaryo	776,3	105,7
Toshkent	4 550,1	110,6
Farg'ona	3 843,0	107,5
Xorazm	1 990,4	109,2
Toshkent sh.	12 304,9	112,2


2024- yilning yanvar-fevral oyida 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan respublikaning Toshkent shahri (112,2 %), Toshkent (110,6 %) va Namangan (110,2 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dynamikasi (yanvar-fevral)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil, 2024- yil yanvar-fevral oyi)



2024- yilning yanvar-fevral oyida o'sish sur'ati **109,9** % ni tashkil qildi.




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,6 % bilan 12 304,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 776,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-fevral oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 40 332,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023 - yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 10,1 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,8 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 8,9 % ga o'sdi va 7 799,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (97,0 %), Surxondaryo (96,9 %) va Jizzax (96,2 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 16,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (39,6 %), Samarqand (15,8 %), Toshkent (13,5 %) va Buxoro (9,6 %) viloyatlarida kuzatildi.

16,2 %



83,8 %


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Qoraqalpog'iston
Respublikasi

842,8

Farg'ona

956,2

Andijon

968,2

Xorazm

1 006,9

Buxoro

1 319,5

Toshkent sh.

4 103,5

Jizzax

1 082,0

Qashqadaryo

957,3

Navoiy

1 612,2

Namangan

926,6

Samarqand

1 057,5

Surxondaryo

1 108,3

Sirdaryo


857,5

Toshkent

1 505,4

2024- yilning yanvar-fevral oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 321,8 ming so'm (2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 107,6 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (4 103,5 ming so'm), Navoiy (1 612,2 ming so'm) va Toshkent (1 505,4 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon bozorlari




Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	4 839,5	119,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	199,2	118,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	466,4	124,3
Buxoro	276,8	118,0
Jizzax	386,5	122,4
Qashqadaryo	464,6	116,8
Navoiy	93,1	120,6
Namangan	372,9	120,4
Samarqand	462,1	116,8
Surxondaryo	709,8	116,2
Sirdaryo	80,2	118,6
Toshkent	401,2	121,2
Farg‘ona	323,4	121,5
Xorazm	327,8	117,7
Toshkent sh.	275,5	124,4

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;
 – jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-fevral)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-fevral)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 839,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 119,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 2 121,3 mlrd. so'mni (120,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslar-ning savdo aylanmasi hajmi 2 718,2 mlrd so'mni tashkil etdi (118,5 %).

2024-yilning yanvar-fevral oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 2 121,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (960,4 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 960,4 mlrd. so'm  45,3 %	Non va non mahsulotlari 264,8 mlrd. so'm  12,5 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 217,7 mlrd. so'm  10,3 %
Tovuq go'shti 102,6 mlrd. so'm  4,8 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 104,6 mlrd. so'm  4,9 %	Tuxum 77,4 mlrd. so'm  3,6 %
Ziravorlar 77,6 mlrd. so'm  3,7 %	Sut va sut mahsulotlari 76,6 mlrd. so'm  3,6 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 61,8 mlrd. so'm  2,9 %
Tuzlamalar 64,3 mlrd. so'm  3,0 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 26,7 mlrd. so'm  1,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 86,9 mlrd. so'm  4,1 %

2024- yilning yanvar-fevral oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 2 718,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 2 171,4 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 460,5 mlrd. so'mni, otlar – 76,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 10,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 1 281,9 mlrd. so'm  47,2 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 517,3 mlrd. so'm  19,0 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 372,1 mlrd. so'm  13,7 %
Qo'ylar 399,9 mlrd. so'm  14,7 %	Otlar 76,1 mlrd. so'm  2,8 %	Echkilar 60,6 mlrd. so'm  2,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 5,7 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 3,9 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,4 mlrd. so'm  0,02 %
Qushlar 0,2 mlrd. so'm  0,01 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 24 770 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 80 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 690 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	2 610,1	112,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	51,9	107,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	70,2	108,9
Buxoro	116,3	105,1
Jizzax	56,5	107,9
Qashqadaryo	104,5	108,8
Navoiy	78,2	108,0
Namangan	74,4	105,0
Samarqand	170,7	106,4
Surxondaryo	89,1	109,7
Sirdaryo	25,3	107,2
Toshkent	227,6	109,8
Farg'ona	108,5	106,4
Xorazm	63,6	109,5
Toshkent sh.	1 373,4	118,7

2024- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 610,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 75,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	12 181,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	295,7	2,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	549,7	4,5
Buxoro	707,8	5,8
Jizzax	991,0	8,1
Qashqadaryo	523,3	4,3
Navoiy	653,4	5,4
Namangan	495,6	4,1
Samarqand	428,3	3,5
Surxondaryo	147,1	1,2
Sirdaryo	93,0	0,8
Toshkent	1 000,3	8,2
Farg'ona	696,8	5,7
Xorazm	664,4	5,5
Toshkent sh.	4 935,0	40,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (4 935,0 mlrd. so'm), Toshkent (1 000,3 mlrd. so'm) va Jizzax (991,0 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 12 181,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 4 944,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 120,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 7 236,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 133,6 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 41 198,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

26,1 %

10 754,8 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

73,9 %

30 443,7 mlrd. so'm

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 30 443,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 73,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 47 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 330 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 47 581 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Farg'ona (2,4 m.), Samarqand (1,5 m.) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,3 m.) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	41 198,5	112,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	532,0	109,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	973,5	113,2
Buxoro	1 887,8	103,5
Jizzax	704,5	104,5
Qashqadaryo	916,3	109,9
Navoiy	455,3	110,9
Namangan	1 486,6	114,4
Samarqand	2 408,4	121,9
Surxondaryo	798,4	109,2
Sirdaryo	477,9	107,8
Toshkent	4 205,7	106,8
Farg'ona	2 438,7	112,5
Xorazm	873,3	108,3
Toshkent sh.	23 040,2	114,1